

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

Oriental Journal of History, Politics and Law
Шарқ тарихи, юриспруденция жана ғылумчилік журналы
ISSN 2191-270X
Oriental Journal of History, Politics and Law
2022 VOLUME - 2
DOI:10.37547/supsci-ojhpl

IMPROVING THE MUSICAL LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Munira J. Yusupova

Student

Termez State University

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: listening, performance, musical movements, genre, form, structure, performance, song, alla, lapar, yalla, national, children's songs, popular songs.

Received: 14.06.22

Accepted: 16.06.22

Published: 18.06.22

Abstract: This article discusses how to increase the musical literacy of primary school students and improve it on the basis of pedagogical technologies. As we get acquainted with the new curriculum of music culture lessons, textbooks created during the independence period, and DTS, which is the basis for their creation, we will determine the place of music literacy in the lessons.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSIQA SAVODXONLIGINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Munira J. Yusupova

Talaba

Termiz davlat universiteti

Termiz, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar, janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi, qo‘sish, alla, lapar, yalla, terma, bolalar qo‘sishlari, ommaviy kuylar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqa savodxonligini oshirish va uni pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish haqida so‘z yuritiladi. Musiqa madaniyati darslarining mustaqillik davrida tuzilgan yangi dasturi, darsliklari va bularning yaratilishiga asos bo‘lgan DTS bilan tanishar ekanmiz, darslarda musiqa savodxonligiga ajratilgan o‘rinni aniqlaymiz.

ПОВЫШЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Мунира Дж. Юсупова

Студент

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: прослушивание, исполнение, музыкальные движения, жанр, форма, структура, исполнение, песня, алла, лапар, ялла, народные, детские песни, народные песни.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы повышения музыкальной грамотности учащихся начальных классов и ее совершенствования на основе педагогических технологий. По мере знакомства с новой программой уроков музыкальной культуры, учебниками, созданными в период независимости, и ДТС, являющейся основой их создания, мы будем определять место музыкальной грамоты на уроках.

KIRISH

Musiqa ham fikrlashning tuyg‘uli bir turi bo‘lib, ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida insonga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan musiqa asarlarini tinglash va kuylashga qiziqish paydo bo‘ladi. Hamma bolalar maktabda o‘qishlarini nazarda tutib, umumta’lim maktabining 1-7 sinflarida musiqa madaniyati darsi kiritilgan. Bu darslar jarayonida barcha musiqiy faoliyatlar bilan bir qatorda musiqa savodxonligi faoliyati ham kiritilgan. Ayrim kishilar, hatto ayrim o‘qituvchilar bu faoliyatni o‘zlashtirish qiyin, uning musiqachi mutaxassis bo‘lmaydigan aksariyat o‘quvchilarga keragi yo‘q deb hisoblaydilar. Bu xato fikr, albatta. Bola harflarni o‘rganib olganidan keyingina o‘zi mustaqil tarzda shu harflar vositasida kitobdan o‘qiysi. Musiqa ham xuddi shunday, do, re, mi, fa, sol, lya, si notalarini o‘rganib olganidan keyin arim oddiy kuy yoki qo‘shiqlarni notadan o‘qib o‘rganishi yoki kuylashi mumkin. Musiqaning elementar, eng zarur belgilarini o‘rganmay turib, musiqa asarini o‘rganish va kuylash yoki cholg‘u asbobiga chalish mumkin emas.

Oddiydan murakkabga tamoyili asosida darsliklarda musiqa savodini o‘rganish uchun materiallar berilgan. Bu materiallarni to‘g‘ri tasniflash asosida o‘quvchilarga ma’lum ketma-ketlikda o‘rgatilsa va bu belgilarni rasmiyatçilik uchun, darsning boshqa materiallaridan ajratib o‘rgatilishi deyarli samara bermaydi. Shuning uchun bu nota materiallarini turli rasmlar va kuylash vositasida o‘rgatish talab etiladi.

O‘quv qurollarida materiallarning to‘g‘ri tasniflash asosida berilganligini ko‘rish uchun, darsni tashkil qilishga berilgan ko‘rsatmalar (DTS, dastur darslik va o‘quv qo‘llanmalar)ni kuzatib chiqamiz.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablari asosida ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi boshqa o‘quv fanlari qatori “Musiqa san’ati va madaniyati” fanining o‘qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

“Musiqa san’ati va madaniyati” o‘quv fani o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘sirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. “Musiqa san’ati va madaniyati” o‘quv fani umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari jumladan, adabiyot, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya mehnat va boshqa fanlar bilan bog‘lanadi.

Barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham davlat standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlar, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topdi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo‘lib etishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o‘zbek musiqa ta’lim-tarbiyasi ustoz va shogird an’analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta’lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar), katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslari o‘rgatishni me’yorlashtiradi.

Musiqa ta’limidan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o‘qituvchilarning musiqiy va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta’limining mazmuni yosh avlodning milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o‘rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatları: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo‘lib qo‘sinq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san’atiga mehr va ishtyoqni oshirish, musiqa san’atiga qiziquvchi o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyyotlarini qondirish musiqa ta’lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdoni asarlari bilan tanishtiriladi. Ta’lim mazmunida hududiy vohalarning san’ati va madaniyati, u erdag'i mahalliy xalq an’analari o‘z ifodasini

topmog‘i lozim. Ta’lim mazmunining majburiy talablari. “Musiqa san’ati va madaniyati” o‘quv fanining mazmuniga bo‘lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi. Boshlang‘ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o‘zbek cholg‘u asboblarini bilishni, mashhur o‘zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o‘quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar vosisasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash
2. Jamoa bo‘lib kuylash
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi

Musiqa tinglash ta’lim mazmunining asosini tashkil etadi. Asarlarni kuylash, tinglash faoliyatları vosisasida o‘rganish bilan bir qatorda ritmik cholg‘uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatları bilan har tomonlama o‘rganish va o‘zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O‘zbek xalq musiqasi, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo‘lib kuylash faoliyati o‘quvchilarning musiqiy qobiliyati xamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlar ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo‘rnavozlik qilishga intiladi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari qo‘shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo‘shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg‘uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo‘lmashin, berilgan mavzudagi asar o‘rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o‘rganishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim,tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari nota savodi) tashkil etadi.

O‘quvchilar o‘zlashtirish kerak bo‘lgan bilimlar:

- o‘tilgan asarning nomini bilish;
- asar ijodkorlari – kompozitor, bastakor, shoir haqida tushunchaga ega bo‘lish;

- musiqanining badiiy tavsifi (quvnoq, sho‘x, g‘amgin va v.b) ni bilish; 19 — musiqanining tasviriy tavsifi (tabiat, o‘yin, ertak, o‘yin, hazil, o‘yinchoqlar obrazlari, kundalik hayot) haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- xalq musiqa ijodi haqida tushuncha umumiy tushunchaga ega bo‘lish;
- o‘zbek musiqasining ommaviy janrlari: qo‘sishiq, alla, lapar, yalla, terma, bolalar qo‘sishqlari, ommaviy kuylarni bilish;
- o‘zbek musiqasida bastakorlik uslubi hamda kompozitorlik ijodi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish;

XULOSA

Musiqa savodi ya’ni nota belgilarini o‘rgatishning ahvoli bundan ham yomon bo‘lishi mumkin. Chunki, aksariyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zlari nota yozuvini bilishmaydi. Bu masala mutaxassis musiqa o‘qituvchilari darslarida ancha yaxshi bo‘lishi mumkin. Lekin hamma mutaxassis musiqa o‘qituvchilari ham nota savodini yaxshi biladi, xususan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga notalarni o‘rgatish metodikasiga amal qiladi deb bo‘lmaydi. Biz ishimizda asosan hozirgi sharoitlarni hisobga olib, ulardan kelib chiqib, o‘quv DTslari, dasturlar va darsliklarni imkon darajasida tahlil qildik. Ayrim darsliklarda berilgan musiqa savodi materiallari to‘g‘ri tasniflangan. Ammo ularni o‘rgatish masalalarida bir muncha qiyinchiliklar bor. Masalan, birinchi sinfda notalarni o‘rganishdan oldin bu ishga yetarli tayyorgarlik ko‘rilishi kerak. O‘quvchilar tovushlarning baland, o‘rta va past bo‘lishini rasmlar vositasida 41 bilishlari kerak. Masalan ayiq katta, u karnay yoki kontrabas kabi o‘ziga xos asbob chalayapti, qushcha kichik u surnay yoki skripka chalayapti kabi tushunchalar hosil qilish orqali past va baland, har bir tovushdan keyin zinapoyalar kabi keyingi undan balandroq pog‘onaga chiqish singari notalarning balandga chiqishi va pastga tushishini o‘rgatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rajabov, T. I., & Oripov, N. O. (2022). Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 409-412.
2. Inomjon og‘li, T. I. (2021). DEVELOPMENT AND PECULIARITIES OF MUSIC EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS OF UZBEKISTAN. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(12), 19-25.
3. Shaturaev, J. (2014). Comparative study on similarities and differences of teaching and learning process in primary schools in Indonesia and Uzbekistan. *Universitas Pendidikan Indonesia*.
4. Mukhamedova, F. (2019). Formation, development of piano performance and education of Uzbekistan. *Eurasian music science journal*, (1), 84-108.

5. Ibodovich, R. T. (2021). THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF CHILDREN'S FOLK SONGS IN MUSIC CULTURE LESSONS. *European Scholar Journal*, 2(6), 139-141.
6. Islyamova, D. (2019). The Value Of The Uzbek Piano School In The Development Of The World Piano Music Performing Culture: The Value Of The Uzbek Piano School In The Development Of The World Piano Music Performing Culture. *Eurasian music science journal*, (1), 52-67.
7. Abidinovich, K. K. (2021). THE HISTORY OF POLYPHONY IN MUSIC CULTURE, MODERN FORMS AND METHODS OF TEACHING POLYPHONIC SINGING. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(12), 85-96.
8. Abduhafizovna, M. M., & Mirzoxid, Y. (2022). WAYS TO INCREASE THE LEGAL KNOWLEDGE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 124-130.
9. Makhmudova, M. M. (2021). HISTORICAL, PRACTICAL AND THEORETICAL BASIS OF CREATION OF MUSIC TEXTBOOKS FOR GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1116-1120.
10. Majidov, D., & Dilnoza, A. (2022). The Role of Classical Music in Increasing the Aesthetic Taste of Future Primary School Teachers. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 2(1), 21-25.
11. Ismatillaevna, A. E., & Uzbekistan, J. (2019). PREPARATION OF FUTURE MUSIC TEACHERS FOR THEIR PROFESSIONAL ACTIVITIES THROUGH UZBEK CLASSICAL MUSIC. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(6).
12. Rakhmonova, D. N. (2019). THE IMPORTANCE OF TEACHING MUSIC AT SCHOOL. In *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 271-273).
13. Mamanazar, D., Uzbekistan, T., & Dilshodbek, K. THE BASIC DIRECTIONS OF THE ACCOMPLISHEMENT OF PREPARATORY CONCEPTION OF FUTURE TEACHERS IN MODERNIZATION OF EDUCATION.
14. Rakhmonova, D. N. (2022). MUSIC LITERACY FOR PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Global Book Publishing Services*, 1-182
15. Rakhmonova, D. N. (2019). DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE FOR ELEMENTARY SCHOOL PUPILS WITH USING INTERACTIVE SOFTWARE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 101-106.
16. Khudoyberdiyevich, D. A., & Rakhmonqulovich, K. N. (2020). An incomparable book of a great scholar. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (6 (8)), 63-71.

17. Karimov, N. (2020). A True Successor of Great Central Asian Scholars. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (9), 62-69.
18. Ziyamukhamedov, J. (2022). PU Sungling's Creative Legacy as a Classic Example of Medieval Chinese Literature. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(1).
19. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).